



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2021-yil 2-avgust

**“O'zkiyosanoatloyiha” aksiyadorlik jamiyati
rahbar va xodimlari koronavirus
infektsiyasiga qarshi emlash tadbirida
ishtirok etdi**



“O'zkimyosanoatloyiha” aksiyadorlik jamiyati rahbar va xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbiri o'tkazildi. Tashkilot xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlashda ZF-UZ-VAC 2001 nomli Xitoy-O'zbek vaktsinasi hamda AQShdan keltirilgan “Moderna” vaktsinasidan foydalanildi.

Mamlakatimizda koronavirusga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlardan biri fuqarolarni koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbirlari hisoblanadi. Bu jarayonda mutaxassislar emlashning afzalliklari, uning inson salomatligi uchun ahamiyati borasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Eslatib o'tamiz, joriy yil 1 mart kuni ZF-UZ-VAC 2001 nomli koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) Xitoy-O'zbek vaktsinasi tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan edi. "Moderna" vaktsinasi esa koronavirusga qarshi ishlab chiqarilgan ilk RNK oqsiliga asoslangan vaktsina hisoblanadi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmat

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/vakcinaciya-1>